



SELF-CONCEPTION AND DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF "I" IN CHILDREN

A.A. Odiljonova

Associate Professor of the Department of Psychology and Pedagogy,
ADU, PhD.

Sh.A. Abdurakhmonova

Student of the Department of Family Psychology

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17539802>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025

Accepted: 30th October 2025

Online: 31st October 2025

KEYWORDS

Child psychology, self-awareness, "Self" concept, personality development, social interaction.

ABSTRACT

This article explores the development of self-awareness and the "Self" concept in children through psychological and social perspectives. Based on the theories of D. B. Elkonin, L. S. Vygotsky, S. L. Rubinstein, and G. Allport, the study highlights the importance of speech, communication, and emotional experience in the child's personal growth. It also emphasizes the crucial role of adults — parents and educators — in building a child's self-confidence and shaping a positive "Self" concept. The findings indicate that self-awareness develops more effectively in an emotionally supportive and psychologically safe environment.

BOLALARDA O'Z-O'ZINI ANGLASH VA "MEN" KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI

A.A. Odiljonova

ADU Psixologiya va pedagogika kafedrası dotsenti, PhD.

Sh.A. Abduraxmonova

Oila psixologiya yo`nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17539802>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025

Accepted: 30th October 2025

Online: 31st October 2025

KEYWORDS

Bola psixologiyasi, o'z-o'zini anglash, "Men" konsepsiyasi, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muloqot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bolalarda o'z-o'zini anglash va "Men" konsepsiyasining shakllanishi psixologik hamda ijtimoiy omillar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida D. B. Elkonin, L. S. Vigotskiy, S. L. Rubinshteyn va G. Ollportning nazariy qarashlariga tayangan holda bolaning shaxsiy o'sishida nutq, muloqot va emotsional tajribaning roli yoritilgan. Maqolada shuningdek, kattalar, ota-ona va tarbiyachilarning bola bilan qiladigan munosabati uning o'ziga bo'lgan ishonchini, ijtimoiy moslashuvini va "Men" konsepsiyasining rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari bolalarning shaxsiy o'zini anglash jarayoni ijobiy psixologik muhitda yanada samarali shakllanishini isbotlaydi.



Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy barkamolligi, mustaqil fikrlaydigan, o'zini anglay oladigan shaxs sifatida shakllanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarning tafakkuri, dunyoqarashi, hayotga munosabatini o'zgartirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z kuch va imkoniyatlariga ishonadigan insonlar etib tarbiyalash — kelajagimizning eng muhim kafolatidir."

Mazkur fikr yosh avlodda o'z-o'zini anglash, "Men" konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishiga alohida e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi. Chunki insonning shaxs sifatida kamol topishi, o'zini boshqalar orasida ajratib ko'ra olishi va ichki "men"ni anglay boshlashi uning psixologik yetukligining muhim belgilaridan biridir.

Bolalik davrida "men" obrazining shakllanishi nafaqat individual tajriba, balki oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya jarayonidagi psixologik muloqotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois bugungi islohotlar doirasida bola shaxsining ichki dunyosini chuqur o'rganish, o'zini anglash jarayonini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning mustaqil fikrlash va o'zini baholash qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya. Bolalarning xatti-harakatlari, xohish va hissiyotlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, bola yangi o'yinchoqqa juda xursand bo'ladi, lekin bir necha daqiqadan so'ng u bilan o'ynamay qo'yadi. Ota-ona va tarbiyachlar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o'zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi. Bola rasm chizib: "Men eng zo'rman!" deydi. Keyin tarbiyachi rasmni tanqid qilsa – "Men chiza olmayman!" deb yig'laydi. Bola o'z "Men" konsepsiyasini atrofdagilarning fikriga tayanib quradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o'z "Men" ini anglay boshlashi avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy psixologiyada Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi ham katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, erta bolalik davrida bola "mustaqillik – shubha" qarama-qarshiligini boshdan kechiradi. Agar ota-ona bolaning mustaqil harakatlarini qo'llab-quvvatlasa, bola o'z kuchiga ishonch hosil qiladi; agar esa doimiy nazorat va tanqid bo'lsa, unda o'z-o'ziga ishonchsizlik rivojlanadi.

Bolalarning yosh xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin bolaning uch yoshgacha o'sishida erishgan yutuqlari -uning xulq atvorini, bilish jarayonlarini sifat jihatdan ancha o'zgartirib yuboradi, natijada bola o'zini alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi deb ta'kidlagan. Ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan biri Gordan Ollport "Men" konsepsiyasi haqida shunday yozadi: "Shaxs psixologiyasi o'zida daxshatli bir sirni – "Men" muammosini yashiradi". "Men" konsepsiyasini psixologik nuqtai nazardan birinchi bo'lib keng qo'llaganlardan biri Z. Freyd bo'lgan. Uning nazariyasida "Men" — shaxs tuzilmasining tarkibiy qismi bo'lib, insonning ongli qarorlar qabul qilishi va xulq-atvorini boshqarish uchun javobgar ruhiy tizim sifatida izohlanadi. Bolaning o'z-o'zini anglash jarayoni erta yoshdan boshlab o'z "Men"ini o'tgan, hozirgi va kelajak zamonlarda idrok etish yo'nalishida rivojlanadi. Bu jarayon davomida bola asta-sekin o'zini atrofdagi



odamlardan ajrata boshlaydi, o'z harakatlari, his-tuyg'ulari va fikrlariga nisbatan refleksiya qobiliyatini shakllantiradi. Avvaliga bola o'zini faqat jismoniy belgilar — ism, tashqi ko'rinish yoki narsalarga egalik orqali anglaydi. Keyinchalik esa u o'zining ichki dunyosi, xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini haqida fikr yurita boshlaydi.

Psixologlarning fikricha, o'z-o'zini anglashning rivojlanishida nutq, ijtimoiy muloqot va faoliyat turlari muhim rol o'ynaydi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta boshlagach, o'zini boshqalarning fikri orqali anglaydi, bu esa "Men" konsepsiyasining shakllanishiga olib keladi. Shunday qilib, bolaning o'z-o'zini anglash jarayoni — bu o'z tajribasi, his-tuyg'ulari va shaxsiy qadriyatlarini tushunish orqali tobora chuqurlashib boradigan uzluksiz psixologik rivojlanish bosqichidir.

Natija. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarda o'z-o'zini anglash va "Men" konsepsiyasining shakllanishi murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan psixologik jarayondir. Ushbu jarayon bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. D. B. Elkonin, L. S. Vygotskiy va S. L. Rubinshteynlarning ilmiy qarashlariga ko'ra, bola o'zini anglashni dastlab tashqi baholay olishiga zamin yaratadi. Shuningdek, kattalarning — ota-ona va tarbiyachilarning — bolaning his-tuyg'ulari hamda xatti-harakatlariga bo'lgan faoliyat, muloqot va nutq orqali rivojlantiradi. Aynan shu omillar bolaning o'z "Men"ini his etishiga, o'zini boshqalardan ajratishiga va o'z xatti-harakatlarini munosabati "Men" konsepsiyasining rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijobiy emotsional baho bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, tanqid esa, aksincha, uning o'zini past baholashiga olib kelishi mumkin. O'z-o'zini anglash bolaning shaxsiy rivojlanishida markaziy o'rinni egallaydi. Bu jarayon orqali bola o'z imkoniyatlarini, his-tuyg'ularini va qadriyatlarini anglaydi hamda jamiyatdagi o'rnini belgilay boshlaydi. Shu bois, tarbiyaviy jarayonda bolada mustahkam va ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish uchun unga mehr, e'tibor va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarur. Masalan, 2–3 yoshli bola "Men o'zim qilaman!" deb aytishni boshlaganda, bu uning o'zini mustaqil shaxs sifatida his eta boshlaganidan dalolat beradi. Shu davrda bola har bir muvaffaqiyati uchun kattalarning maqtoviga muhtoj bo'ladi. Agar ota-ona uni qo'llab-quvvatlasa — "Ajoyib, sen o'zing kiyinding!" desa, bolada ishonch kuchayadi. Ammo tanqid yoki befarqlik ("Sen to'g'ri kiyina olmaysan!") bolaning o'zini past baholashiga olib keladi.

Maktabgacha yoshda esa bola o'zini tengdoshlari bilan taqqoslay boshlaydi. Masalan, "Men chiroyli rasm chizaman, lekin Aziz mendan tez yuguradi" kabi fikrlar paydo bo'ladi. Bu esa uning o'z qobiliyatlarini anglash va boshqalar bilan solishtirish orqali "Men" konsepsiyasini mustahkamlash bosqichidir. Maktab yoshiga kelib, bola o'z xatti-harakatlarini tahlil qila boshlaydi. Masalan, u o'qituvchi yoki ota-onaning bahosini eslab, "Men bu ishni yaxshi bajardim", yoki "Men xato qildim, keyingi safar to'g'rilayman" deydi. Bu esa o'z-o'zini nazorat qilish va ichki refleksiya shakllanayotganidan dalolat beradi.

Muhokama. Turli tadqiqotchilar qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, o'z-o'zini anglash jarayoni ijtimoiy ta'sir, nutq rivoji, faoliyat va emotsional munosabatlar asosida shakllanishi aniqlanadi. Bola dastlab tashqi omillarga tayanadi, keyinchalik esa o'z ichki dunyosini idrok etish, his-tuyg'ularini nazorat qilish va shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish bosqichiga o'tadi. Bu nazariy yondashuvlar bolalar psixologiyasida muhim



amaliy xulosa beradi. Tarbiyachi va ota-onaning emotsional qo'llab-quvvatlashi bolaning sog'lom "Men" konsepsiyasini shakllantirishda eng zarur omildir. Ijobiy muloqot va hurmat muhitida ulg'aygan bola o'zini qadrlaydigan, ishonchli va mustaqil shaxs bo'lib yetishadi. Zamonaviy psixologiyada o'z-o'zini anglashni shunchaki shaxsiy xususiyat sifatida emas, balki kognitiv, emotsional va ijtimoiy tizimlarning o'zaro uyg'un faoliyati sifatida ko'rishadi. Bola o'zini anglagan sari u o'z his-tuyg'ularini tartibga solish, qarorlar qabul qilish va o'z faoliyatini ongli nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa uning shaxsiy yetukligi, mustaqilligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolaning o'z-o'zini anglash jarayoni murakkab psixologik mexanizm bo'lib, u ijtimoiy muhit, muloqot va shaxsiy tajriba ta'sirida bosqichma-bosqich shakllanadi. Bola dastlab o'zini atrofdagilar bilan munosabatda, ularning baholari orqali anglaydi. Vaqt o'tishi bilan u o'z harakatlariga mustaqil baho berish, his-tuyg'ularini tushunish va o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqotchilar — D. B. Elkonin, S. L. Rubinshteyn va L. S. Vigotskiy — o'z-o'zini anglashning rivojlanishida nutq, ijtimoiy tajriba va mustaqil faoliyatning hal qiluvchi rol o'ynashini qayd etganlar. Ayniqsa, muloqot va emotsional qo'llab-quvvatlash bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlovchi omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, bolaning "Men" konsepsiyasini shakllantirish uchun unga hurmat, ishonch va ijobiy rag'bat muhitini yaratish zarur. Bunday sharoitda bola o'zini qadrlaydigan, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli shaxs sifatida kamol topadi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Nishonova Z.T., Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". T.: 2005
3. Z.Nishanova, G.Alimova, A..Turg'unboeva M..Asranboeva – "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi"
4. Эльконин, Даниил Борисович. Детская психология : (развитие ребенка от рождения до семи лет)
5. Слотина Т. В. .Психология личности: Учебное пособие. 2008